

BIZNES VA MENEJMENTDA INNOVATSIYALAR

Abatova Gulnaz

Ilmiy rahbar: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali assistent o'qituvchisi

Djoldasova Uldaulet Muxammedkarim qizi

*Muallif: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali madaniyatshunoslik
yo'nalishi I bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada biznes, menejment va innovatsiya har biri haqida alohida to'xtalib o'tiladi. Biznesni rivojlantirish va formulasi, O'zbekiston Respublikasidagi PD-50 biznesni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, biznesni nima uchun innovatsiya bilan birlashtirish kerak degan savollarga javob topiladi.

Kalit so'zlar: Biznes, innovatsiya, menejment, formula, O'zbekiston Respublikasi, rivojlanish, prezident.

KIRISH

Biznes va menejment innovatsiyalari bu har biriga alohida to'xtalib o'tadigan bo'lsak: Biznes nima? Menejment nima? Nima uchun bugungi kunda innovatsiya bilan birga ishlatamiz? Shu savollarga javob topsak.

Biznes – ingliz tilidan olingan bo'lib, “ish yuritish”, “tadbirkorlik”, “savdo-sotiq”, “bandlik” ma'nolarini beradi. Biznes bu – jamiyat ehtiyojlarini qondirish orqali foyda olishga qaratilgan faoliyat. Faoliyat ko'lamini doimiy rivojlanishni, o'z ustida ishlashni va imkoniyatlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Uning asosiy formulasi:

$$F = D - X$$

(Foyda = Daromad – Xarajat)

Foyda – daromaddan barcha xarajatlar chegirib tashlangandan keyingi qoldiq.

Daromad – barcha tushum va boshqa manbalar.

Xarajatlar – biror narsa uchun sarflangan pul yoki mablag'.

Biznes doimiy ravishda tajriba o'tkazishni o'z ichiga oladi, natijada ziyon yoki foyda bo'lishi mumkin. Biznes yuritish uchun aql, kreativlik va maqsadga intiluvchanlik muhim.

Tony Robbins: “Biznesda yutuq – qarorlaringiz sifatiga bog'liq”.

Jeff Bezos: “Bizni rivojlantiradigan narsa – mijozni eshitish va har kuni yaxshilanish”.

Menejment – bu tashkilotning maqsadlariga erishish uchun rejalashtirish, tashkil etish, yo'naltirish va nazorat qilish jarayonidir. Bu jarayonda resurslar (inson, pul, vaqt,





materiallar) samarali boshqariladi. Menejment inglizcha “management” – boshqarish, rejalashtirish, tashkil etish, tartibga solish va nazorat qilish degan ma’noni anglatadi.

Menejmentning umumiy ta’rifi: xo’jalik yuritish samaradorligini oshirish, bozor va jamiyat ehtiyojlarini qondirish, foydani oshirishga qaratilgan boshqaruv tizimi.

Menejmentda ikki muhim soha bor:

→ □ Marketing

→ □ Innovatsiya

Innovatsiya: Innovatsiya so’zi lotincha “novatsiya” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “yangilik” va “o’zgarish” degan ma’noni anglatadi. Innovatsiya – bu yangi yoki sifat jihatdan yaxshilangan tovar va xizmatlarni yaratishdir.

O’zbekistonda biznesni qo’llab-quvvatlash 2025-yil “Tadbirkorlikni qo’llab-quvvatlash” strategik yo’l deb e’lon qilingan. 2025–2027-yillarga 270 trillion so’m ajratilishi rejalashtirilgan. 2025-yil 19-martdagi PD-50 qarori kichik va o’rta biznesni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan. 2024-yil: “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilingan.

Mamlakatimizda biznes muhitining rivojlanishi iqtisodiyotimizni yuksaltirishga va yoshlar bandligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Menejment “Tafakkur-Bo’stoni”, Toshkent – 2012
2. “Yangi O’zbekiston yoshlar va biznesga e’tibor asosiy vazifamizdir”, Andijon – 2024
3. Innovatsion siyosatni tahlil qilish va shakllantirish uchun oid shartlar, 2015-yil.
4. Qosimova.D.S. Menejment nazariyasi
5. Boboyev.A.Ch.(2018). O’zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faolligini rag’batlantirish yo’llari .

